

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025  
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCESS

ULRICH'S WEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
Российский экономический университет  
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
1931

TDU  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TDTU  
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICHKA UNIVERSITETI  
1955

TJU  
TOSHKENT DAVLAT ARKHITKTURA-QURILISH UNIVERSITETI  
1955

TDF  
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAT  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI  
1991

TZPI  
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI  
1940



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish .....	12
<b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari .....	19
<b>Usmonov Abbas Valijon o'g'li</b>	



# TRANSPORT VA LOGISTIKA SOHALARIDA SUN'iy INTELLEKTNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI



**Usmonov Abbas Valijon o'g'li**

Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti

Email: [kamalak10987654321@gmail.com](mailto:kamalak10987654321@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) tarmoqlarining transport va logistika sohalaridagi samaradorligi va unumdoorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, transport va logistika tarmog'idagi jarayonlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati ochib beriladi. Xususan, SI xarajatlarni kamaytirish, yetkazib berish vaqtlarini qisqartirish va yoqilg'i sarfini optimallashtirishda muhim omil sifatida ko'rildi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun SI texnologiyalarining afzalliklari, mavjud davlat siyosati va kelajak istiqbollari batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt (AI), Transport, Logistika, veb-sayt, treyler, prognoz, inventory management, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish.

**Abstract:** This article analyzes the efficiency and productivity of artificial intelligence (AI) networks in the fields of transport and logistics. Furthermore, it highlights the importance of applying AI technologies in transport and logistics processes. In particular, AI plays a vital role in reducing costs, shortening delivery times, and optimizing fuel consumption. The article also explores the advantages of AI technologies for Uzbekistan's economy, the current state policies in this field, and future prospects.

**Keywords:** Artificial Intelligence (AI), Transport, Logistics, website, trailer, forecast, inventory management, digital economy, automation.

**Аннотация:** В данной статье анализируется эффективность и продуктивность применения сетей искусственного интеллекта (ИИ) в сфере транспорта и логистики. Особое внимание уделено значению внедрения технологий ИИ в процессы транспортировки и логистики. В частности, показано, что использование ИИ способствует снижению расходов, сокращению сроков доставки и оптимизации потребления топлива. В статье также подробно рассмотрены преимущества технологий ИИ для экономики Узбекистана, действующая государственная политика и перспективы развития.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект (ИИ), Транспорт, Логистика, веб-сайт, трейлер, прогноз, inventory management, цифровая экономика, автоматизация.

## KIRISH

Bugungi global iqtisodiyotda transport va logistika sanoati mamlakat iqtisodiy tizimidagi "qon aylanish tizimi" vazifasini bajaradi. Tovarlar, xizmatlar va ma'lumotlarning uzlusiz va xavfsiz harakati to'g'ridan-to'g'ri ushbu sohaning samaradorligiga tayanadi. Shu bilan birga, logistika jarayonlari murakkab strukturaga ega bo'lishi bilan bir qatorda, tirbandliklar, kutilmagan to'xtashlar va resurslarning samarasiz taqsimlanishi kabi xavf-xatarlarni ham o'z ichiga oladi.

Bu muammolarni hal etishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari misli ko'rilmagan imkoniyatlar ochmoqda. Xususan, yo'naliishlarni real vaqt rejimida optimallashtirish, yuk tashishni monitoring qilish, prediktiv texnik xizmat ko'rsatish va butun logistika zanjirida shaffoflikni ta'minlash orqali SI samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Yetakchi davlatlar va kompaniyalar ushbu texnologiyalarga yirik sarmoyalar kiritib, transport-logistika tizimlarining fundamental transformatsiyasini amalga oshirmoqda.



O'zbekiston sharoitida ham, raqamli transformatsiya hamda logistikani modernizatsiya qilish davlat siyosatining markazida turadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmonida sun'iy intellekt, Big Data va ilg'or texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha sohalarida keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Ushbu hujjat mamlakatda transport-logistika sohasida SI texnologiyalarini amaliyatga joriy etish uchun normativ-huquqiy asosni yaratishda muhim qadamlardan biri bo'ldi.<sup>1</sup>

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport va logistika sohalarida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda xalqaro ilmiy doiralar e'tiborida turibdi. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari ushbu texnologiyalarning samaradorlik, xavfsizlik va iqtisodiy samaraga erishishdagagi o'rnni alohida ta'kidlaydi. Masalan, McKinsey Global Institute (2019) tadqiqotlariga ko'ra, logistika sohasida SI qo'llanilishi xarajatlarni o'ttacha 15–20 foizgacha kamaytirishi va yetkazib berish tezligini oshirishi mumkin. Shuningdek, Gartner va Deloitte konsalting kompaniyalari hisobotlarida avtomatlashtirilgan yo'nalish rejalashtirish, omborxona boshqaruvi va prognozlash jarayonlarida SI asosiy drayver sifatida e'tirof etilgan.

Ilmiy manbalarda (Brynjolfsson & McAfee, 2017; Russell & Norvig, 2021) ta'kidlanishicha, transport tizimida SI texnologiyalari asosan Machine Learning va Big Data Analytics yechimlariga asoslanib, real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa logistikadagi an'anaviy muammolar – yo'llardagi tirbandlik, transport vositalarining ishdan chiqishi, yoqilg'i sarfining yuqoriligi kabi omillarni samarali bartaraf etishga xizmat qiladi.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu mavzuga qiziqish bildirishmoqda. Masalan, A. Vahobov va X. Egamov o'z izlanishlarida mamlakatning tranzit salohiyati, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiy sharoitida logistika jarayonlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, Sh. Abdurahmonov va M. Tursunovlarning tadqiqotlarida "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida transport-logistika tizimida sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari va uning iqtisodiy samarasini ilmiy asoslangan.

Xalqaro amaliyatga murojaat qilsak, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya tajribasi alohida ahamiyatga ega. Bu davlatlarda avtonom transport vositalari, dronlar orqali yetkazib berish va blokcheyn asosida shaffof hujjat aylanishi keng qo'llanilmoqda. Masalan, Amazon va Alibaba kompaniyalari dronlardan foydalanish orqali logistika samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligida qurildi. Avvalo, sun'iy intellektning transport va logistika jarayonlaridagi o'rni bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar, hukumat qarorlari va "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasi tahlil qilindi. Keyinchalik xalqaro tajribalar (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Koreya) hamda O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Qiyoysi tahlil, statistik va iqtisodiy usullar yordamida SI joriy etilishidan kutiladigan samaralar (xarajatlarni kamaytirish, tezlikni oshirish, ekologik samaradorlik) baholandi. Shuningdek, prediktiv texnik xizmat ko'rsatish, zaxiralarni prognozlash va avtonom transport vositalaridan foydalanish kabi amaliy misollar tahlil qilindi. Natijalarni baholashda xarajatlar, tezlik, xavfsizlik, ekologiya va mijoz ehtiyojini qondirish mezonlari asos qilib olindi.

Metodologiya O'zbekiston sharoitiga moslashtirilib, raqamli infratuzilma, normativ-huquqiy baza va kadrlar salohiyati inobatga olindi. Shu orqali transport va logistika sohasida SI texnologiyalarini joriy etishning ilmiy va amaliy asoslari ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Transport va logistika sohalarida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib borilgan tahlillar ushbu jarayonning samaradorligini oshirishda ulkan imkoniyatlar yaratishini ko'rsatmoqda. Jahan amaliyoti, yirik xalqaro kompaniyalar tajribasi hamda O'zbekistonning milliy transport-logistika tizimi holati qiyoysi o'rganildi. Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, SI texnologiyalari jarayonlarni avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Logistika jarayonlarining optimallashtiruv. Sun'iy intellekt logistika zanjirining har bir bosqichini optimallashtirishga qaratilgan bir qator yechimlarni taqdim etadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. <https://lex.uz/docs/-5030957>



Avtomatik yo'nalishni rejalashtirish va transportni boshqarish

An'anaviy yo'nalishni rejalashtirish ko'pincha vaqtini hisobga oluvchi xatoliklar va kechikishlarga sabab bo'ladi. SI algoritmlari esa real vaqt rejimida tirbandliklar, ob-havo sharoitlari, yo'l ta'mirlash ishlari va boshqa o'zgaruvchilarni tahlil qilib, yuk avtomobilari uchun eng qisqa, xavfsiz va eng kam yoqilg'i sarflanadigan yo'nalishlarni avtomatik tarzda aniqlaydi. Masalan, yuk mashinasi haydovchisi tirband yo'llardan o'tish o'rниga, SI tizimi uni optimal muqobil yo'nalishga yo'naltiradi. Bu harakat vaqtini tejash bilan birga, atrof-muhitga yetkaziladigan zararni ham kamaytiradi.

Zaxiralarni boshqarish (Inventory Management)

Zaxiralarni boshqarish logistikaning eng muhim va murakkab qismlaridan biridir. SI bu jarayonni yanada samarali qiladi. U oldingi sotuv ma'lumotlari, mavsumiy tendensiyalar va bozor o'zgarishlarini tahlil qilib, kelajakdagagi talabni aniq bashorat qiladi. Bu esa kompaniyalarga ortiqcha zaxiralar yig'ilishining yoki tovar tanqisligining oldini olishga yordam beradi. Natijada, omborxona xarajatlari kamayadi, mijozlarning ehtiyoji doimo qondiriladi.

Oldindan texnik xizmat ko'rsatish (Predictive Maintenance)

Transport vositalarining kutilmagan nosozliklari logistika zanjirini buzib, katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. SI tizimlari transport vositasidagi sensorlardan ma'lumotlarni yig'adi (dvigatel harorati, tebranish darajasi, quvvat sarfi va boshqalar) va potensial nosozliklarni oldindan aniqlaydi. Bu transport vositalarining ishdan chiqishini oldini oladi va texnik xizmat ko'rsatishni faqat kerakli vaqtida rejalashtirish imkonini beradi. Natijada, ta'mirlash xarajatlari va yukni yetkazib berishdagi kechikishlar sezilarli darajada kamayadi.

O'zbekistonda sun'iy intellektning logistikadagi istiqbollari

O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi tufayli mintaqaviy logistika markaziga aylanish uchun ulkan salohiyatga ega. SI texnologiyalarini logistikaga joriy etish bu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi

O'zbekiston Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi SI texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga keng joriy etishni nazarda tutadi. Bu doirada, logistika sohasidagi raqamli transformatsiya uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratilgan, malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Hukumat va xususiy sektor o'rtafiga hamkorlikda yangi startaplar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimi shakllantirilmoqda.

Avtonom transport vositalari va dronlar

Kelajakda O'zbekistonning uzoq va qishloq joylarida yuk tashishda avtonom yuk mashinalari va dronlardan foydalananish yo'lga qo'yilishi mumkin. Bu ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yirik shaharlar yoki eksport terminallariga tez va samarali yetkazib berishda juda foydali bo'ladi. Dronlar, masalan, o'ta qisqa muddatlarda kichik hajmli yuklarni tashishda yoki inventarizatsiyani tezkor o'tkazishda qo'llanilishi mumkin.

Blokcheyn texnologiyasi bilan integratsiya

Logistika jarayonlarida shaffoflik va xavfsizlikni oshirish uchun sun'iy intellektni blokcheyn texnologiyasi bilan birlashtirish katta imkoniyat yaratadi. Bu, ayniqsa, xalqaro yuk tashishda hujjatlarni avtomatik qayd etish, yuklarning haqiqiyligini tekshirish va firibgarlikning oldini olishga yordam beradi. O'zbekistonning tranzit salohiyatini oshirish uchun bu texnologiya muhim ahamiyatga ega.

Sun'iy intellektning iqtisodiy va ijtimoiy afzallikkari

Logistika sohasida SI texnologiyalarini qo'llash nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham foydalidir.

Xarajatlarning sezilarli kamayishi: yoqilg'i, ta'mirlash va mehnat xarajatlarining optimallashuvi kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Yetkazib berish vaqtining qisqarishi: tovarlarning manzilga tez yetib borishi biznes jarayonlarini tezlashtiradi va mijozlar ehtiyojini tezroq qondiradi.

Ish sharoitlarining yaxshilanishi: avtomatlashtirish natijasida inson mehnatiga bog'liq bo'lgan og'ir va xavfli ishlarni kamayadi, bu esa ishchilarning xavfsizligini oshiradi.

Ekologik samaradorlik: yoqilg'i sarfining kamayishi ekologik ifloslanishni pasaytiradi, bu esa atrof-muhitni muhofaza qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining transport va logistika sohasiga kirib kelishi ushbu tarmoqda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. U nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytirish va jarayonlarni tezlashtirishga xizmat qiladi, balki butun logistika zanjirining shaffofligi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlaydi. Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, SI asosidagi avtomatlashtirilgan yo'nalish rejalashtirish, prediktiv texnik xizmat ko'rsatish, zaxiralarni prognozlash va blokcheyn integratsiyasi logistikaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



O'zbekiston uchun bu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatning tranzit salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, eksport hajmini kengaytirish va "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda SI texnologiyalarining qo'llanishi muhim drayver bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
2. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. European Journal Of Business Startups And Open Society, 2(11), 1-5.
3. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 455-461.
4. Giyazova, N.B., & Sh,B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORATADBIRLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 482-489.
5. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(49), 250-256.
6. Таирова, М. М., & Зойтов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. Science and innovation, 3(Special Issue 42), 371-376.
7. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)